


24. Ikkita bir xil, tomonlari uzunligi 3 cm va 9 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak, rasmda ko'rsatilgandek, ustma-ust chizilgan. Ikki to'g'ri to'rtburchak ustma-ust tushgan umumiy qismining yuzi nechaga teng?

- (A) 12 cm^2 (B) $13,5 \text{ cm}^2$ (C) 14 cm^2 (D) 15 cm^2 (E) 16 cm^2




25. Katta kub 64 ta bir xil kichik kub yordamida qurildi. Katta kubning 3 ta tomoni bo'yalgan. Maksimum nechta kichik kubning faqatgina bir tomoni bo'yalgan?

- (A) 27 (B) 28 (C) 32 (D) 34 (E) 40

26. Kanga, asosi kvadrat bo'lgan piramidaning uchlarini 1, 2, 3, 4 va 5 raqamlari bilan belgiladi. U har bir tomon uchun, shu tomon uchlaridagi sonlarning yig'indisini hisobladi. Shu yig'indilardan 4 tasi quyidagicha: 7, 8, 9 va 10. Beshinchi tomondagi yig'indi nechaga teng?

- (A) 11 (B) 12 (C) 13 (D) 14 (E) 15




27. Alisa, Bell va Ketni qo'l bilan kuch sinashish musobaqasida qatnashishdi. Har bir o'yinda ikkita qiz kuch sinashar edi va uchinchi qiz dam olar edi. Har bir o'yindan keyin g'olib qiz, dam olgan, uchinchi qiz bilan o'yinga tushar edi. Umumiy, Alisa 10 marta, Bell 15 marta va Ketni 17 marta o'yinga tushdi. Ikkinchi o'yinda kim yutqazdi?

- (A) Alisa (B) Bell (C) Ketni
(D) Alisa yoki Bell ikkinchi o'yinda yutqazgan bo'lishi mumkin
(E) Bell yoki Ketni ikkinchi o'yinda yutqazgan bo'lishi mumkin

1		6	3
	2	2	8
	7		4
		7	

28. Har bir katakka bir son shunday yozilishi kerakki, har bir qatoridagi va har bir ustundagi 4 ta sonning yig'indisi doim bir xil. Kulrang kvadratga qanday son yozilishi kerak?

- (A) 5 (B) 6 (C) 7 (D) 8 (E) 9



29. Siniq chiziq, aylananing AB diametrining bir boshida, A nuqtada boshlanadi. Siniq chiziq va AB diametr orasidagi har bir burchak α ga teng, rasmda ko'rsatilgandek. 4 ta cho'qqidan so'ng siniq chiziq B nuqtada tugaydi. α burchakni toping?

- (A) 60° (B) 72° (C) 75° (D) 80° (E) Boshqa javob

30. 8 ta ketma-ket kelgan uch xonali natural son quyidagi xususiyatga ega: ularning har biri o'zining oxirgi raqamiga karrali. Shu 8 ta son orasidagi eng kichik sonning raqamlari yig'indisini toping?

- (A) 10 (B) 11 (C) 12 (D) 13 (E) 14



"KENGURU" xalqaro matematika tanlov-o'yin



Imtixon 1 soat 15 daqiqada davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mavjud (A-D). Belgilangan vazifaning doirasi va mazmuni uning to'liq bajarilishini talab qilmaydi; Vazifa savollariga maktab dasturidan tashqari savollar ham kiritilishi mumkin.

2020 yil 29 mart

9-11 sinflar

3 - balli masalalar

1. Chizmada yon tomoni uzunligi 1 cm bo'lgan 10 ta kvadratdan tashkil topgan shakl berilgan. Shaklning perimetri necha cm?

- (A) 14 (B) 18 (C) 30 (D) 32 (E) 40



2. Quyidagi hisoblashlarning javoblari o'sish tartibida, ya'ni kichikdan kattagacha qo'yilganda, o'rtada qaysi biri turar edi?

- (A) $1+2345$ (B) $12+345$ (C) $123+45$ (D) $1234 + 5$ (E) 12345

3. Annaning onasining onasining qizining onasi kim?

- (A) Annaning singlisi (B) Annaning qiz bola jiyani (C) Annaning onasi
(D) Annaning xolasi (E) Annaning buvisi

4. Kosmo o'zining ko'ylagini chapda ko'rsatilgandek to'g'ri kiysa, uning belini atrofidagi gorizontaal tasmalar to'liq 7 ta uzukni hosil qiladi. Bu tong, u ko'ylagining tugmalarini o'ngda ko'rsatilgandek noto'g'ri taqdi. Shunda uning belini atrofida nechta to'liq uzuk hosil bo'ldi?

- (A) 0 (B) 1 (C) 2 (D) 3 (E) 4



5. 4 ta ketma-ket kelgan butun sonning yig'indisi 2 ga teng. Ulardan eng kichigi qaysi?

- (A) -3 (B) -2 (C) -1 (D) 0 (E) 1

	A D
	+ C D
A B	+ A B
+ C D	+ C B
7 9	?

6. Berilgan hisoblashlarda har bir harf bir raqamni anglatadi. Ular bir nechta ikki xonali sonlar hosil qilish uchun ishlatildi. Chapdagi ikki son yig'indisi 79 ga teng. o'ngdagi 4 ta sonning yig'indisini toping?


- (A) 79 (B) 158 (C) 869 (D) 1418 (E) 7979

7. 2020 va 1717chi yillarda ikki xonali son ikki marta takrorlanib kelgan. 2020-yildan keyin necha yildan so'ng yana shunday xususiyatli yil keladi?

- (A) 20 (B) 101 (C) 120 (D) 121 (E) 202

8. Martin varrak yasash uchun bitta reykan 6 ta bo'lakka bo'ldi. U 120 cm va 80 cmlik reyka bo'laklarini diagonal sifatida ishlatdi. Qolgan 4 ta bo'lak, varrakning tomonlari o'rtalarini rasmda ko'rsatilgandek birlashtirdi. Reyka bo'linishidan avvalgi uzunligi qancha bo'lgan?

- (A) 300 cm (B) 370 cm (C) 400 cm (D) 410 cm (E) 450 cm




9. Merida 10 ta bo'lak qog'oz bor. Ulardan bir nechtasi kvadrat shaklida, qolganlari uchburchaklar edi. U uchta kvadrat qog'ozni uchidan uchigacha diagonal bo'yicha qirqdi. Keyin u natijada hosil bo'lgan 13 ta qog'oz bo'lagidagi uchlarni hisoblab chiqdi va 42 ta uch natijaga erishdi. Meri kvadratlarni qirqishdan oldin nechta uchburchaklarga ega edi?

- (A) 8 (B) 7 (C) 6 (D) 5 (E) 4

10. Tomoni 1 bo'lgan kvadratlardan tashkil topgan setka berilgan. Unda 4 ta nuqta belgilangan. Shu nuqtalarning uchta orqali uchburchak chizilsa, qanday eng kichik yuzaga erishish mumkin?

- (A) 1/2 (B) 1 (C) 3/2 (D) 2 (E) 5/2



4 - balli masalalar

11. Helen ketma-ket 18 kun davomida buvisinikiga tashrif buyurmoqchi. Uning buvisi "ertak kunlari", ya'ni Seshanba, Shanba va Yakshanba Helenga ertak o'qib beradi. Agar Helen ko'proq "ertak kunlari" da buvisining yonida bo'lgisi kelsa, tashrifini qaysi kundan boshlashi kerak?


- (A) Dushanba (B) Seshanba (C) Juma (D) Shanba (E) Yakshanba

12. Agar a, b, c va d butun sonlari $ab = 2cd$ ifodani qoniqtirsa, quyidagi sonlardan qaysi biri $abcd$ ko'paytmaning qiymati bo'la olmaydi?

- (A) 50 (B) 100 (C) 200 (D) 450 (E) 800

13. Atowndan Cetowngacha eng qisqa yo'l Betown orqali o'tadi. Atowndan chiqib shu yo'l bilan Cetown tomon yursak, birinchi bo'lib chapdagi yo'l belgisini ko'ramiz. Keyin esa o'ngdagi yo'l belgisini ko'ramiz. Singan yo'l belgisida qanday masofa yozilgan edi?

- (A) 1 km (B) 2 km (C) 3 km (D) 4 km (E) 5 km




14. Teng yonli uchburchakning yon tomoni uzunligi 20 cm. Qolgan ikki tomonidan birining uzunligi ikkinchisining 2/5 qismini tashkil etadi. Quyidagi qiymatlardan qaysi biri shu uchburchakning perimetri?

- (A) 36 cm (B) 48 cm (C) 60 cm (D) 90 cm (E) 120 cm


15. Berilgan shaklning 9 ta katagiga bittadan son yozilishi kerak. Har bir diametrdagi uchta sonning yig'indisi 13 ga teng va aylanadagi 8 ta sonning yig'indisi 40 bo'lishi lozim. Markazdagi katakda qanday son yozilishi kerak?

- (A) 3 (B) 5 (C) 8 (D) 10 (E) 12



16. Ikki turli o'lchamli kvadrat teng tomonli uchburchak ichiga chizildi. Bitta kvadratning bir tomoni uchburchakning bir tomonida, rasmda ko'rsatilgandek, yotadi. So'roq belgisi turgan burchakni toping?

- (A) 25° (B) 30° (C) 35° (D) 45° (E) 50°



17. Masha 2020 sonining ikkinchi va uchinchi raqamlari orasiga ko'paytirish belgisini qo'ydi. Natijada, $20 \cdot 20$ ifodaning qiymati sonning kvadratiga teng ekanligiga e'tibor berdi. 2010 dan 2099 gacha (2020 ham hisobga olinadi) nechta son shunday xususiyatga ega?

- (A) 1 (B) 2 (C) 3 (D) 4 (E) 5

18. Luka 520 kilometrlik sayohatini avtomobilining bakida 14 litr yoqilg'i bilan boshladi. Uning avtomobili har 10 km yo'lga 1 litr yoqilg'i sarflaydi. 55 km masofa yurgach, u yo'l belgisini ko'radi. Yo'l belgisida, Luka turgan nuqtadan boshlab, yo'l bo'yi joylashgan 5 ta yoqilg'i quyish shahobchasigacha bo'lgan masofalar yozilgan edi: 35 km, 45 km, 55 km, 75 km va 95 km. Avtomobilning yoqilg'i bakining sig'imi 40 litr va Luka bakni to'ldirish maqsadida yo'lida faqat bir marta to'xtamoqchi. U to'xtamoqchi bo'lgan yoqilg'i quyish shahobchasi qanchalik uzoqda joylashgan?


- (A) 35 km (B) 45 km (C) 55 km (D) 75 km (E) 95 km

19. $17x+51y=102$ ifoda berilgan. $9x+27y$ ifodaning qiymatini toping?

- (A) 54 (B) 36 (C) 34 (D) 18 (E) Aniqlab bo'lmaydi.

20. Kvadrat shaklga ega rangli shishaning yuzi 81 dm². Bu shisha 6 ta teng yuzali uchburchakdan tashkil topgan (rasmg qarang). Hamma uchburchaklar birlashgan nuqtada pashsha o'tiribdi. Pashsha shishaning pastki asosidan qanchalik uzoqda o'tiribdi?

- (A) 3 dm (B) 5 dm (C) 5.5 dm (D) 6 dm (E) 7.5 dm



5 - balli masalalar

21. 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar, 9 xonali son hosil qilish uchun tasodifiy tarzda joylashgan. Natijadagi son 18 ga karrali ekanining ehtimoli qanday?

- (A) 1/2 (B) 4/9 (C) 5/9 (D) 1/3 (E) 3/4

22. Quyon bilan toshbaqa 5 kilometrlik to'g'ri yo'lida poyga o'ynashdi. Quyon toshbaqadan 5 marta tezroq. Quyon, bilmasdan, to'g'ri yo'lga perpendikular yo'nalishda yugurishni boshladi. Bir qancha vaqtdan so'ng u xatosini angladi va o'g'irilib, poyga tugash nuqtasiga qarab yugurdi. Quyon poyga tugash nuqtasiga toshbaqa bilan bir vaqtda yetib keldi. Quyonning o'g'irilish nuqtasidan poyganing tugash nuqtasigacha bo'lgan masofani toping?

- (A) 11 km (B) 12 km (C) 13 km (D) 14 km (E) 15 km

23. Stolda bir nechta kvadrat va uchburchaklar yotibdi. Ulardan bir qanchasi ko'k va qolganlari qizil. Shakllardan bir nechtasi katta va qolganlari kichik. Biz bilamizki:

1. Agar shakl katta bo'lsa, bu - kvadrat
 2. Agar shakl ko'k bo'lsa, bu - uchburchak
- A-E ifodalardan qaysi biri rost?

- (A) Barcha qizil shakllar - kvadratlar (B) Barcha kvadratlar katta
(C) Barcha kichik shakllar ko'k rangda (D) Barcha uchburchaklar ko'k rangda
(E) Barcha ko'k shakllar kichik